

## 8-dars

### Darsning mavzusi: Tutuq belgili so‘zlar talaffuzi va imlosi

**Darsning ta’limiy maqsadi:** o‘quvchilaning tutuq belgili so‘zlarning talaffuzi va imlosi, uning so‘z ma’nosini farqlashdagi vazifasi haqidagi bilimlarini aniqlash va mustahkamlash; talaffuz me’yorlariga amal qila olish, bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga rioya qila olish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o‘quvchilarda davlat ramzlariga hurmat, vatanparvarlik hissini shakllantirish, tarixiy obidalar, mamlakatimiz boyliklari, ularni asrash bo‘yicha ko‘nikma va malakalar hosil qilish; o‘z fikrini boshqa manbalarga tayangan holda asoslay olish ko‘nikmasini shakllantirish; o‘zining xato va kamchiliklarini to‘g‘ri tushunib, o‘zini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va o‘rtoqlariga yordam berish; davlat ramzlariga nisbatan hurmat va iftixon hissini shakllantirish;

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish; mavzuga oid so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda o‘rinli qo‘llay olish, nutqda so‘zlarning grammatik shakllaridan to‘g‘ri foydalanish, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay olish

**Darsning turi:** o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantiruvchi dars.

**Darsning metodi:** suhabat, mustaqil ish metodi, “So‘zni toping!” ta’limiy o‘yini.

**Darsning johozi:** mavzuga oid rasmlar, so‘zlar yozilgan kartochkalar, multimedia ilovalari, texnik vositalar.

### Darsning borishi

#### I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma’naviyat daqiqasi.

#### II.O‘tilgan mavzularni mustahkamlash.

Uy vazifasini tekshiriladi. Uyga berilgan 45-mashq o‘quvchilar bilan birgalikda tekshiriladi, birgalikda tahlil qilinadi.

#### Husnixat daqiqasi:

Kichik “x” harfi ikki: o’ng va chap yarim oval unsurlardan iborat bo’lib, qo’l harakatini uzmay yoziladi. Daftarga bir qator kichik “x” harfini va shu harf bilan bog’langan so’zlarni yozadilar; *xo’roz, xattot, xato, xat, xabar*

### III. Yangi mavzu bayoni

**46-mashqda** berilgan “Ona tilim” she’ridan olingen parcha o’quvchilarga o’qib eshittiriladi. Ajratib ko’rsatilgan san’at so’zining talaffuzi va yozilishi ustida ishlanadi, *san’at* so’zi tutuq belgisiz talaffuz qilinsa va yozilsa, *sanash uchun buyurish* ma’nosini ifodalaydi va buyruq maylidagi fe’l hisoblanadi. Shuning uchun ham bu so’z tutuq belgisi bilan qo’llangandagina *ustalik, mahorat* ma’nolarini bildirishi ta’kidlanadi.

**47-mashq** yozma bajariladi. Matn o’qilib, undagi tutuq belgili so’zlar aniqlanadi. Ko’chirib yozish topshirig’i beriladi: *a’lochi, La’li, Jur’at, Ra’no, A’zam*.

**48-mashqda** berilgan topishmoqlarning javobi topiladi va tutuq belgili so’zlar aniqlanadi.

*Juda sevamiz uni, U barchaning ulfati,  
Xilma-xildir mazmuni. Bo’lar ba’zan surati.  
Bo’lmasa ham muallim, Qani, o’rtoq, buni top!  
Bera oladi ta’lim. Eslagan de, bu.... (Kitob)*

Tutuq belgisi tovush hisoblanmaydi. Tutuq belgisi unlidan keyin kelganda shu unlining *cho’ziqroq talaffuz* qilinishini bildiradi: *ma’no, ba’zan*.

Tutuq belgisi undoshdan keyin kelganda *uning keyingi unlidan ajratib talaffuz qilinishini* anglatad: *san’at, jur’at*

**“So’zni toping”** *ta’limiy* o’yini. **Bunda** so’zlarga tutuq belgisi ishlatalishiga ko’ra guruhlarga ajratiladi.

#### Unlidan keyin      Undoshdan keyin

Ra’no

Tal’at

Sa’va

Sur’at

A’lo

Mas’uliyat

### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Mavzuni mustahkamlash uchun **49-mashq** yozma bajariladi. Berilgan so’zlarni bo’ginga ajratib yozing. Shu so’zlar ishtirokida matn tuzing.

*Ma’-mu-ra, ma’-ri-fat, Ra’-no, ma’-no, ma’-qul, ba’-zan, ta’-sir, va’-da, e’-lon.*

Shundan so’ng mavzuni mustahkamlash uchun o’quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

- So’z nimalardan tuziladi?

- Qaysi tovushlar bo‘g‘in hosil qiladi?
- Bo‘g‘inda nechta tovush bo‘lishi mumkin?
- Tutuq belgisi unlidan keyin kelsa, unli qanday aytildi?
- Tutuq belgisi undosh tovushdan keyin kelsa, qanday talaffuz qilinadi?

## **V. Darsga yakun yasash va baholash.**

Dars yakunidao‘quvchilar joriy darsdao‘zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So‘ngra dars davomida faol qatnashgano‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

## **VI. Uyga vazifa berish.**

O‘quvchilarga quyidagicha uyga vazifa beriladi:

*“Mening oila a’zolarim” mavzusida kichik hikoya yozing. Unda badiiy to‘qimalardan foydalaning. Tuzgan gaplaringizda tutuq belgili so‘zlar ishtirok etsin.*